

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARNING ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MUAMOSI

*Ermuminov Abdijabbar Tursunbayevich,
Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası
o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir fanni bola tarbiyasida o'z o'rni bor. Shu jumladan tasviriy san'at va Tasviriy san'at fanlarining shaxs shakllanishidagi o'rni shundan iboratki; Tasviriy san'at orqaligi o'quvchi hech kim bilmaydigan hattoki o'z atrofidaqilar ba'zida o'zi ham bilmaydigan ruhiy ahvoli qiziqishi kechinmalari tabiati kabi holatlarini chizgan chizgilari ishlatgan ranglari orqali ma'lumot beradi. Hunarmachchilik ishlaridagi naqsh elementlarini kuzatishdi. Buxoro naqshlari hunarmandlari ishlarini farqli va o'xshash tomonlarini kuzatishdi. Sayohatlardan kelgach o'zlari yasab ko'rmoqchi bo'lgan buyumlari ularni naqshlarini o'zlari chizib ko'rish istagi borligini aytishdi. So'ngra to'garak jarayonlarida bajardik. Natijada sayohatdan ko'zlangan maqsadga etishdim. O'quvchilarning estetik madaniyati oshadi fanga bo'lgan qiziqishlari yuqori bo'ladi.

ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ

*Ермунинов Абдижаббар Турсунбаевич,
преподаватель кафедры изобразительного искусства и инженерной
графики Термезского государственного университета.*

Аннотация: В данной статье каждому предмету отведено свое место в воспитании детей. В том числе, такова роль изобразительного искусства и изобразительного искусства в формировании личности; С помощью изобразительного искусства ученик дает информацию о своем психическом состоянии, интересах, переживаниях и других ситуациях, о которых не знает никто, даже окружающие, через рисуемые им цвета. Они наблюдали элементы узора в поделках. Мастерицы бухарских узоров наблюдали разные и сходные стороны их работы. Вернувшись из поездок, они сказали, что хотят нарисовать выкройки того, что хотят сделать. Потом мы делали это по кругу. В итоге я достиг намеченной цели поездки. Повысится эстетическая культура учащихся, повысится их интерес к науке.


THE PROBLEM OF DEVELOPING AESTHETIC CULTURE OF STUDENTS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOL

*Ermuminov Abdijabbar Tursunbayevich,
a teacher of the Department of Fine Arts and Engineering Graphics of Termiz
State University.*

Abstract: In this article, each subject has its place in child education. Including, the role of visual arts and fine arts in personality formation is that; Through the visual arts, the student gives information about his mental state, interests, experiences, and other situations that no one knows, even those around him, through the colors he draws. They observed pattern elements in crafts. The artisans of Bukhara patterns observed the different and similar aspects of their work. After coming back from the

trips, they said that they wanted to draw the patterns of the things they wanted to make. Then we did it in circles. As a result, I reached the intended goal of the trip. Students' aesthetic culture will increase and their interest in science will increase.



San'at kishilar ruhiyatiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Shu bilan birga kishining estetik madaniyatini rivojlantiradi. Estetik madaniyat bu shaxsning atrofida bo'layotgan voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishning maqsadli jarayoni hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muommosi har bir pedagog uchun asosiy vazifalardan biri. O'quvchining estetik madaniyati yuqori bo'lishi uni jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi, vatanga bo'lgan mehr tuyg'usi, oilasi jamiyatini sevish kabi ijobiy hislatlarini rivojlantiradi. Har bir fanni bola tarbiyasida o'z o'rnini bor. Shu jumladan tasviriy san'at va Tasviriy san'at fanlarining shaxs shakllanishidagi o'rnini shundan iboratki; Tasviriy san'at orqaligi o'quvchi hech kim bilmaydigan hattoki o'z atrofida gilar ba'zida o'zi ham bilmaydigan ruhiy ahvoli qiziqishi kechinmalari tabiati kabi holatlarini chizgan chizgilari ishlatgan ranglari orqali ma'lumot beradi.



O'zi aytishni istamagan holatda his tug'yulari kechinmalarini qog'ozda akslantiradi. Dissertatsiya ishi mavzusi yuzasidan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bilan tajriba sinov ishlarini olib borishim kerak edi. Men tajriba uchun Buxoro tumanidagi 24-sonli umum ta'lim maktabini tanladim va kuzatishlar olib bordim. Tajriba sinov maqsadida yettinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilariga ixtiyoriy grix naqsh bajarish vazifasini berdim doskaga namunalarni qo'ydim hamda o'zim ham chizib ko'rsatdim. Vazifani bajarish jarayonlarini kuzatdim. Kuzatish davomida o'quvchilar yo'l qo'yayotgan kamchiliklarni tahlil qilib bordim va ikki sinfni bir biridan farqli tomonlarini bilib oldim. Ya'ni 7-sinfda tasviriy san'at fani 8-sinfda Tasviriy san'at fani o'tiladi. Grix naqshda geometrik yasashlar ya'ni aylanalarni teng bo'laklarga bo'lish, burchakni teng bo'laklakga bo'lish, ellips, parabola, giperbola kabilardan foydalaniladi. Bular haqida ko'proq Tasviriy san'at fani orqali ma'lumot berilganligi sababli 8-sinf o'quvchilarida chizishda qiynalmaslik holatlari sezildi. Naqshlar birmuncha aniq tartibli, bir xil kattalikda bo'ldi. Shundan bilish mumkinki, Tasviriy san'at fani orqali amaliy san'at elementlarini bajarish tartibini ishlab chiqib bajarish samarali natija berishini kuzatdim. Chizilayotgan naqsh elementlari bir xil kattalikda, chiroyli hamda tartibli chiqadi. O'quvchilarni estetik madaniyatini rivojlantirish uchun vatanimizdagi tarixiy joylarga sayohatga etdim.



Avval buxorolik bo'lganimiz uchun Buxoro shahridagi tarixiy obidalardagi naqshu nigorlarni ko'rsatishga ularni manosi chizilishi unda ishlatilgan ranglar kishiga estetik tasiri haqida aytib o'tdim. O'zlari mustaqil hunarmandlar bajargan ishlarni kuzatishlari uchun vaqt berdim va ularni sayohatdan olgan tasurotlarini so'radim. Hunarmandlar bajargan ishlarni ko'rib zavqlanishgani qanday tayyorlashgani ishlatilgan bo'yoqlari o'zlari ham bajarib ko'rishmoqchi ekanligini aytishdi. Ozroq vaqtdan so'ng Samarqand viloyatiga o'quvchilarni ziyoratga olib bordik. U yerdagi tarixiy obidalardagi naqshlar hunarmanchilik buyumlarini kuzatishdi. O'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.



Hunarmachchilik ishlaridagi naqsh elementlarini kuzatishdi. Buxoro naqshlari hunarmandlari ishlarini farqli va o'xshash tomonlarini kuzatishdi. Sayohatlardan kelgach o'zlari yasab ko'rmoqchi bo'lgan buyumlari ularni naqshlarini o'zlari chizib ko'rish istagi borligini aytishdi. So'ngra to'garak jarayonlarida bajardik. Natijada sayohatdan ko'zlangan maqsadga etishdim. O'quvchilarning estetik madaniyati oshdi fanga bo'lgan qiziqishlari yuqori bo'ldi.

Kayfiyati ruhiyatida o'zgarishlar sezildi. Sayohatdansa'ngyanabirboraikkisinfda hamixtiyoriynaqshchizishvazifasiniberdimhamdakuzatdim. Kuzatish natijasida shuni sezdimki avvalgi chizganlariga nisbatan ancha o'zgarishlar bo'lgan. Aytishadiku ming marotaba etishgandan bir marotaba ko'rgan yaxshi deb bu fikrni o'quvchilar yana bir bor isbotlashdi. Estetik madaniyati rivojlandi va zavqi oshdi. Buyuk matafakkir bobomiz Ibn Sino takidlaganidek san'at bu mo'jizadir. U inson yuragi va miyasining shunday xilyat joylarini torini san'at vositasida chertadi deb aytib o'tganlari bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
2. M. Pritsa «Toshkent ganchkorligi» Badiiy adabiyotlar nashriyoti. 1960 yil.
3. S.Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
4. T.Abdullayev XIX-XX asrlarda O'zbekiston kandakorlik san'ati. Toshkent 1994.
5. R.Xasanov. Amaliy bezak san'ati metodikasi. Toshkent 2003 yil.
6. D.Mamatov «Kompyuter grafikasi» Durdona nashriyoti, B. 2020.-172.
7. Mamatov D. Projects of making clay and plastic toys in pre-school education //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – C. 281-285.